

**ILMLI QIZLARNING JAMIYATDAGI O'RNI**

Tolibjonova Dildoraxon Xayrulla qizi

Jadal rivojlanib borayotgan davrda jamiki yoshlar ilm olishga, oliy ma'lumotli bo'lib, ona yurtimizga xizmat qiladigan kadr bo'lib yetishishga astoydil harakat qilmoqdalar. Shu sabab ham ilm olishda o'g'il-u qiz teng huquqli. Qo'shimcha qilsam, 1428-yilda barpo qilingan Buxoro madrasasining peshtoqiga: "Ilm olish har bir musulmon erkak-u ayoli uchun farzdir", - deb yozib qo'yilgan. Shuning uchun ham hozirda ko'plab qizlar o'zlarini ilm-fan sohasida sinab, O'zbekiston nomini jahon minbarlarida yana-da baralla yangrashiga o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Qolaversa, yurtimizda ham ayni qizlarning ilm olishi va munosib taqdirlash uchun imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda. Mana shulardan biri "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti 1999-yildan buyon o'z ilmi, odobi, muvaffaqiyatlari, iste'dodi bilan boshqalarga ham o'rnak bo'la oluvchi qizlarga berib kelinmoqda. Ayni damda esa ko'plab qizlarning o'z ustida ishlashiga, yurtboshimizning o'z qo'llaridan shu mukofotni olish uchun harakat qilishlariga sabab bo'lmoqda. Hozirga kelib yurtimizda mana shunday "Zulfiya" mukofoti sovrindorlari soni talaygina. Shulardan biri 2019-yili oltinchi bor urinishda mukofotni qo'lga kiritgan Dilafruz Ismatovadir. U Toshkent davlat yuridik universitetining bakalavr va magistraturasi bitiruvchisi va hozirda turmush o'rtog'i bilan Amerikadagi Penn state Law universitetining magistraturasiga grand asosida qabul qilinganliklari bois Amerikada ikki o'g'li bilan istiqomat qilishmoqda. Bu, albatta, juda ko'p qizlar uchun o'rnak bo'la oladi.

"Ayol-qizi o'qimishli yurtning kelajagi porloq bo'ladi", - deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich. Chunki farzand tarbiyasiga ko'proq ona mas'ul. Agar ona ilimli bo'lsa, farzand ham shunday bo'lishi fanda o'z isbotini topgan. So'zinning yaqqol isboti, uzoqqa bormaylik, mana misol uchun dunyoga mashhur, o'z ilmi va qilgan ishlari bilan dunyoni tarannum etgan barcha



bobokalonlarimizning onalari o'qimishli,olima ayollar bo'lgan.Shuning uchun ham biz –ayollar doimo ilm talabida bo'lishimiz darkor.

Yuqorida aytib o'tilganidek qizlar uchun juda ko'p imkoniyatlar eshigi keng ochib berilmoqda.Ulardan biri xotin-qizlar uchun magistratura bosqichining bepul targ'ib qilinganidir,bundan juda ko'plar minnatdor.Shu sharoitlardan qizlar har jabhada unumli foydalanishmoqda.Qaysi sohani qaramang,barida yetakchi ayol-qizlarni ko'rish mumkin.Hattoki,davlat oliy tashkilotlarida ham rahbar sifatida ish olib borishmoqda.Misol uchun :Saida Mirziyoyeva –Prezident Administratsiyasi Ijroiya apparatining sector mudiri;Tanzila Norboyeva-Oliy Majlis Senati raisi;Hilola Umarova-maktabgacha va maktab ta'lim vaziri;Elmira Bositxonova-Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari;Svetlana Ortiqova-Bosh prokuror o'rinbosari;Zulayho Mahkamova-Bosh vazir o'rinbosari.Bu ro'yhatni uzoq davom ettirish mumkin.Ayni mana shularni yozar ekanman,qalbmida faxr tuyg'usi alanga oldi va niyat qildimki,bir kun,albatta,men ham mana shular safida bo'laman va tinimsiz harakat qilaman.Yurtinga sodiq,uning rivoji uchun hissa qo'sha oladigan ilmlin qizlar qatorida bo'laman.

Ertangi kun umidlarining va yurtimizning kelajagi ayollar qo'lida ekan,ulardan ilmli bo'lishlari,doimo izlanishlari talab etiladi.Zero,jamiyat ayollari o'qimishli ekan,bu yurt yuksalaveradi,gullab-yashnaydi!